

PEDAGOGIK MULOQOT VA PEDAGOGIK TEXNIKA

Xasanova M.T.

Pedagogika va psixologiya kafedrası (PhD).

Jumayeva X.Sh.

“Sog’liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog’lig’ini saqlash” yo’nalishi

1-kurs magistr talabasi.

Toshket Davlat Tibbiyot Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19881950>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik muloqot va pedagogik texnika tushunchalarining nazariy asoslari hamda ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik muloqot o’qituvchi va ta’lim oluvchi o’rtasida samarali hamkorlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida ko’rib chiqiladi. Pedagogik texnika esa o’qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etuvchi nutq madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik takt va muomala odobi kabi tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi. Maqolada pedagogik muloqotning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi roli, pedagogik texnikaning o’quv jarayonida qo’llanishi, o’qituvchining kasbiy imidji va refleksiyasi, shuningdek, kreativ pedagogika tamoyillari asosida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatda muloqot madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va o’qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so’zlar: Pedagogik muloqot; pedagogik texnika; pedagogik mahorat; kommunikativ kompetensiya; muloqot madaniyati; nutq madaniyati; pedagogik takt; ta’lim samaradorligi; kasbiy imidj; kreativ pedagogika.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы понятий педагогического общения и педагогической техники, а также их значение в процессе обучения и воспитания. Педагогическое общение рассматривается как важное средство обеспечения эффективного взаимодействия между преподавателем и обучающимся.

Педагогическая техника включает в себя такие составляющие, как культура речи, мимика, пантомимика, педагогический такт и этика общения, которые отражают профессиональное мастерство педагога. В статье освещается роль педагогического общения в формировании коммуникативной компетенции, применение педагогической техники в учебном процессе, профессиональный имидж и рефлексия преподавателя, а также пути повышения эффективности обучения на основе принципов креативной педагогики. Результаты исследования предлагают практические рекомендации по развитию культуры общения в педагогической деятельности, использованию современных образовательных технологий и совершенствованию профессионального мастерства педагога.

Ключевые слова: Педагогическое общение; педагогическая техника; педагогическое мастерство; коммуникативная компетенция; культура общения; культура речи; педагогический такт; эффективность обучения; профессиональный имидж; креативная педагогика.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of the concepts of pedagogical communication and pedagogical technique, as well as their significance in the educational process. Pedagogical communication is considered an important means of ensuring effective interaction between the teacher and the learner.

Pedagogical technique includes such components as speech culture, facial expressions, pantomime, pedagogical tact, and communication ethics, which reflect the professional skills of the teacher. The article highlights the role of pedagogical communication in the formation of communicative competence, the application of pedagogical techniques in the learning process, the professional image and reflection of the teacher, as well as ways to improve the effectiveness of education based on the principles of creative pedagogy. The research results propose practical recommendations for developing communication culture in pedagogical activity, using modern educational technologies, and improving the professional skills of teachers.

Keywords: *Pedagogical communication; pedagogical technique; pedagogical mastery; communicative competence; communication culture; speech culture; pedagogical tact; educational effectiveness; professional image; creative pedagogy.*

Kirish. Pedagogik muloqot va pedagogik texnika zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi samarali muloqot ta'limning sifatini belgilovchi muhim omil bo'lib, pedagogik texnika esa o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlash ham pedagogning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik muloqot o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiradi. Pedagogik texnika esa nutq madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik takt va muomala odobi kabi jihatlarni o'z ichiga olib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik muloqot va texnika masalalarini chuqur o'rganish, ularni amaliyotda qo'llash ta'lim sifatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi.

O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Sharq allomalari adabiy meroslarida ta'kidlangan, o'qituvchilar haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar bilishlari va ularga qat'iy rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir. Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan. Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik

ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli "Notiqlik san'ati" ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi.

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim–tarbiya jarayonida o'z–o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyatini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi. Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:
- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi. Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagogik muloqot va pedagogik texnika ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqot madaniyati, pedagogik takt, nutq va muomala odobi nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik texnika o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etuvchi vosita sifatida ta'lim jarayonida o'z aksini topadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot va texnikani chuqur o'rganish hamda amaliyotda qo'llash ta'lim sifatini yuksaltirish, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va o'qituvchining kasbiy imidjini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, kreativ pedagogika tamoyillarini joriy etish va pedagogik madaniyatni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. –T., 2009.
2. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
4. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatel'nom protsesse VUZa: Monografiya / – Kolomna.: Pozitiv, 2012.
5. Zanina L.V., Menshikova N.P. Osnovy pedagogicheskogo masterstva. – Ros-tov-na-Donu, 2003.
6. Tixtayevna, X. M. (2025). Shifokor va bemor muloqotining psixologik xususiyatlari. *Global Science Review*, 8(1), 64-74.
7. Tixtayevna, X. M., & Baxtiyarovich, A. A. (2025). Kamolova Gulchiroy Otabek qizi. Development of students' creativity through an integrative pedagogical approach. 20 (4): 151-156, 8. Xasanova, T. M. (2025). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyalari.
8. Tixtayevna, X. M. (2025). Stages of improving the methodology for developing social competencies. *Shokh library*, 1(12).
9. Tixtayevna, X. M. (2025). Psixologik diagnostika va uning imkoniyatlari. *Global science review*, 8(1), 75-85.
10. Tixtayevna, X. M. (2025). Psixika va ong. Yangi renessansda ilm-fan taraqqiyoti, 1(2), 378-382.
11. Tixtayevna, X. M. (2025). Psixologiyaning fanlar tarkibidagi o'rni. Yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 3(5), 380-385.
12. Tixtayevna, X. M. (2025). Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. *Central Asian Journal of Academic Research*, 3(12), 60-64.